

Nizomiy nomidagi TDPU

Tarix fakulteti Tarix yo'nalishi

4-bosqich talabasi Shahzod Suyunov

Annotatsiya: *Ushbu maqolada shayboniylar davrida yozilgan asarlar va ularning tariximizni o'rganishdagi ahamiyati, mahalliy manbalar tahlilida hukmron sulolalar, ularning nasl-nasabi, tarjimai holi, siyosiy faoliyati, diniy, ma'naviy jihatlariga ko'proq e'tibor qaratilishi, harbiy yurishlar ilohiy karomat va mo'jizalar orqali bayon qilishi, diniy karomatlarga ko'proq tayanishi, bugungi kunda ushbu tarixiy qo'lyozma adabiyotlarga hozrgi davr olimlari qarashlari haqda batafsil ma'lumotlar berib o'tilgan.*

Asosiy qism: Shayboniylar sulolasi hukmronlik qilgan davrdagi Buxoro xonligining siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy tizimi tarixchilar tomonidan alohida mavzu sifatida tadqiq etilgan emas. Ayrim tarixchi va sharqshunos olimlar o'z tadqiqotlarida mazkur mavzuga ma'lum maqsadlarda to'xtalib o'tganlar. Hozirgi kunga qadar tarixchi olimlarning bir necha avlodi ilmiy ishlariga nazar solsak, ularda shayboniylar davri davlatchilik, siyosat, ijtimoiy iqtisodiy jarayonlar xususida ayrim fikr va mulohazalar bildirilganligini ko'ramiz. Bugungi kunda tarixshunoslik yo'nalishida aynan O'rta Osiyoning o'rta asr tarixini o'rganish borasida bir qator ishlar amalga oshirib kelingan, lekin shunga qaramay, tarixshunos B.Axmedov o'zining 1985-yili Toshkentda nashr etilgan "XVI-XVIII aslarda O'rta Osiyoning tarixiy-jo'g'rofiy adabiyoti" nomli asarida "biz shu kunga qadar O'rta Osiyoning qadimiy hayotini manbalar asosida o'rganish bo'yicha maxsus tadqiqotlarga ega emasmiz, tarixshunoslik tadqiqotchiligi to'g'risida esa gapirmasa ham bo'ladi"- deb ta'kidlab o'tgan. O'rta Osiyo tarixining tarixshunoslik jihatidan to'la o'rganilmaganligiga sabab tarixiy manbalarining yo'qligi emas, balki, aksincha, ularning xilma-xilligidadir. Haqiqatdan ham biz juda boy tarixga ega xalqlar sirasiga kiramiz. Shunday bo'lishiga qaramasdan,

Oʻrta Osiyo xalqlarining XVI asrdan XIX as oʻrtalarigacha boʻlgan hayoti tariximizning eng kam oʻrganilgan davrlaridan biri boʻlib qolmoda. Rus sharqshunoslari asosiy eʼtiborni Temurgacha va temuriylar davrini oʻrganishga qaratishgan edi. Sovet davrida esa, keyingi 30 yilda bir qator qimmatli tadqiqotlar koʻzga tashlana boshladi. Biroq, XVI -XIX asrdagi Oʻrta Osiyo xalqlari tarixining mukammal darajada oʻrganilgan va koʻp sonli tarixiy adabiyotlarga asoslangan tahlili juda kam uchraydi. Ular qatoriga B.A.Ahmedov, B.Gʻafurov, Ye.A.Davidovich, X.Ziyoyev, R.B.Muqminova, A.M.Muxtorov, O.D.Chexovich va boshqalarning bir qator asarlarini namuna sifatida keltirish. Oʻrta Osiyo xalqlari tarixini oʻrganuvchilar uchun "Oʻzbekiston tarixiy manbalarda" asosida chiqarilgan kitoblar yaxshi koʻmakchi boʻla oladi. Ulardan birinchisi Oʻrta Osiyo qadimgi tarixiga doir maʼlumotlar toʻplangan kitob 1984-yilda nashr etilgan edi. 1988-yilda esa "Oʻzbekiston tarixiy manbalarda" nomi navbatdagi kitob bosmadan chiqdi. Undan Oʻrta Osiyo tarixi bilimdoni sharqshunos V.Lunin toʻplagan, va unda XVI-XIX asrlarning sayohatchilari maʼlumotlari oʻrin olgan. XVI -XVIII asrlarda va hatto keyinroq ham yuz bergan ahvol oqibatida edi, deb yozadi. XVI - XIX asrdagi Oʻrta Osiyo xalqlarining tarixiy manbalari juda koʻp va xilma-xil boʻlib, bu davr manbalarini oʻrganishga oʻz asarida XVI -XX asrlar orasida yozilgan ellikdan oshiqroq qimmatli tarixiy-joʻgʻrofiy, falakiyotga oid, memuar va biografik mazmunli, Oʻrta Osiyoning XVI -XVIII asrlar orasidagi hayoti xususida boy maʼlumotlar beruvchi Sharq qoʻlyozmalarini tahlil qilib chiqqan sharqshunos B.A.Ahmedov yordam berdi.

B.A.Ahmedov fikri va qarashlaricha rus va chet el elchilari- Antoniy Jenkinson, I.D.Xoxlov, aka-uka Pazuxinlar, Floriya Benevin va Novopatros mitropoliti Xrisanfning XVI-XIX asrlardagi Oʻrta Osiyo toʻgʻrisidagi, uning oʻsha davrdagi Rossiya bilan aloqalari haqidagi maʼlumotlari keltiriladi. Bu maʼlumotlar fors, turk, arab tillaridagi manbalarning maʼlumotlari bilan taqqoslanib, ancha tarixiy dalillar aniqlashtirildi. Eng muhimi, B.A.Ahmedov ilk manbalar bilan shugʻullanuvchi tadqiqotchilar ishini yengillashtirishga katta hissa qoʻshdi. U voqea va dalillarni aniqlashga kirishdi. Bu juda ogʻir, masʼuliyatli, uning manbashunoslik mehnati qadrini ikki baravar oshiradigan, Oʻrta Osiyoning

XVI-XIX asr tarixini o'rganishni osonlashtiradigan asar edi. Bundan tashqari u tarixshunoslikning muhim sharti - qiyoslash va bor ma'lumotlarni jiddiy, tubdan qayta tekshirish qoidasiga amal qilgan. Buning uchun B. Ahmedov o'z tahliliga muayyan bir davr bo'yicha bir necha asarlarni kiritgan. Bu yerda muallif bir voqea to'g'risidagi turli manbalar ma'lumotlarini solishtirmoqchi emas. Bu alohida izlanish, shug'ullanishni talab etadi. Buning ustiga muallif bu asarida O'rta Osiyoning ko'rilayotgan davriga oid barcha yozma yodgorliklarni qamrab olgan emas. Shuning uchun muallif mumkin qadar to'la, ishonchli va qimmatliroq, O'rta Osiyo xalqlari tarixining yorqin davrlarini tasvirlovchi asarlarga murojaat etgan.

XV asrning ikkinchi yarmida Dashti qipchoqda ko'chmanchi fedal boylar va oliy hokimiyat orgasida keskin kurash bordi. Abulxayrxonning o'limidan so'ng ayniqsa, bu qonli o'zaro urush yanada kuchaydi. Hokimiyat tepasiga uning nabirasi - Abulxayr Shayboniy kelganidan so'ng o'zbek fedallarining nizolari barham topdi. U ko'pchilik o'zbek urug'larini birlashtirib temuriylarga qarshi chiqdi. XV as oxiri - XVI asr boshlarida ko'chmanchi O'zbeklarning O'rta Osiyoning madaniy mintaqalari tomon harakatlanishi avj oldi. Biz "Nusratnoma" asarida o'sha davr tarixiy sharoitning qanchalik murakkabligi haqda, Movarounnahr xalqining noroziligi kuchayishining, Samarqand, Buxoro, O'sh, Axsi, Andijon, Qarshi, Qorako'l va O'rta Osiyoning boshqa ko'plab shahar va mintaqalaridagi qo'zg'olonlarning sabablarini bilamiz va o'zimiz uchun ko'plab qiziqarli ma'lumotlar topamiz. Muallif Qorako'l qo'zg'oloni to'g'risida ayniqsa muhim ma'lumotlarni keltiradiki, ularni XVI asrning boshqa birorta manbalarida uchratmaymiz. O'zbek xalqi etnogenezi, XV-XVI asrlardagi O'rta Osiyo aholisning etnik tarkibi bilan shug'ullanayotgan etnograf ham bu kitobdan juda giziqarli ma'lumotlar olishlari mumkin. Shunday qilib, barcha turk va mo'g'ullarning afsonaviy bobosi hisoblangan Og'izxon sulolasi tarixi "Tavorixi guzida"ning birinchi qismini egallaydi.

Xulosa : Shayboniylar tarixini o'rganishga doir adabiyotlar shu qadar ko'p va hilma hil bo'lishiga qaramasdan bugungi kunda bu davrni o'rganish borasida deyarli katta ilmiy ishlar amalga oshirlamabdi. Bugungi kunda Shayboniylar davri ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy jarayonlar mavzusiga doir turli

tarixiy manbalar arxiv fondlarida chang ostida qolgan. Afsuski ularni olib va ularning sharhidan quyidagi xulosalarga kelish mumkin: fors-tojik tilida yozilgan mahalliy manbalar o‘z maqsadiga ko‘ra ko‘proq hukmron sulolalar, ularning nasl-nasabi, tarjimai holi, siyosiy fao–liyati, diniy, ma’naviy jihatlariga ko‘proq e’tibor qaratishi, harbiy yurishlarini esa ilohiy karomat va mo‘jizalar orqali bayon qilishi, diniy karomatlarga ko‘proq tayanishi, voqealarni ilohiy ilm va adabiyotning o‘z davri darajasidan kelib chiqib, zamon talabiga mos tasnif etish usullarini qo‘llashi bilan ajralib turadi; yilnoma va manbalarda xonlarning qahramonliklari, jasorati madh etilib, ular sharafiga hamdu sano aytish bilan cheklanganlar, ayrim muayyan voqea va hodisalar esa mufassal berilmagan hamda shu sababli harbiy tizim va harbiy hayot bilan aloqador misollar bunday asarlarda kam uchraydi. Manbalarda tarixiy jarayonlar talqini asar muallifining dunyoqara–shi, tafakkur va idrok darajasi hamda o‘sha davr diniy qarashlari bilan ham chambarchas bog‘liqligini alohida ta’kidlash joiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

- 1.Mirziyoyev. Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. -T.: "O‘zbekiston"NMIY,2018.- 29 b.
- 2.Erskin. U. Bobur Xindistonda. Bobur xukumronligi davrida Xindiston tarixi. T.: Cho'lpon nashriyoti. 1995.- 6-b 3
- 3.Komiljon Hoshimov „O‘zbek pedagogikasi antalogiyasi“.T.:1995.282-b
- 4.O.Hasanboyeva.,, Pedagogika tarixi xrestomatiya“.T.:1993.74-77-b
- 5.O‘zbekiston milliy ensiklopedyasi.T.:2001.83-